ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA STANDARTLASHTIRILGAN ISH USULINI JORIY ETISH

Boykishiyeva Dilnozaxon Abdusalomovna

"O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi Andijon filiali Mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosi bosh mutaxassisi, Andijon davlat texnika instituti mustaqil tadqiqotchisi.

Turg`unov Zakirjon

Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalari instituti, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya. Maqolada ishlab chiqarish korxonalarida standartlashtirilgan ishni joriy etishning mazmuni, ahamiyati va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Standartlashtirilgan ish ishlab chiqarish jarayonlarida takrorlanuvchanlikni ta'minlash, texnologik intizomni mustahkamlash hamda sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda standartlashtirilgan ishni joriy etish jarayonining asosiy bosqichlari, ish joylarini tashkil etish va jarayonlarni hujjatlashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur yondashuvning ishlab chiqarish jarayonlaridagi nomuvofiqliklarni kamaytirish, vaqt va resurslar yo'qotilishini qisqartirish hamda xodimlar faoliyatini birxillashtirishga ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari standartlashtirilgan ishni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarining barqaror ishlashini ta'minlash bilan birga, korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: standartlashtirilgan ish, ishlab chiqarish jarayonlari, jarayonlarni boshqarish, ish joyini tashkil etish, sifat barqarorligi, ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik intizom, sanoat korxonalari.

Annotation. The article analyzes the content, significance and practical aspects of the introduction of standardized work at production enterprises.nnotation. The article analyzes the content, significance and practical aspects of the introduction of standardized work at production enterprises. Standardized work is considered as an important management tool nnotation. The article analyzes the content, significance and practical aspects of the introduction of standardized work at production enterprises. Standardized work is considered as an important management tool that serves to ensure reproducibility in production processes, strengthen technological discipline, and stabilize quality and efficiency indicators. The study covered the main stages of the process of introducing standardized work, the organization of workplaces and the documentation of processes. The impact of this approach on reducing inconsistencies in production processes, reducing the loss of time and resources and homogenizing the activities of employees is also

ISSN 3030-3907

justified.he impact of this approach on reducing inconsistencies in production processes, reducing the loss of time and resources and homogenizing the activities of employees is also justified. The results of the study indicate that the introduction of standardized work will be an important factor in increasing the competitiveness of enterprises, while ensuring the stable functioning of production processes.

Keywords: standardized work, production processes, process management, workplace organization, quality stability, production efficiency, technological discipline, industrial enterprises.

Аннотация. В статье анализируются содержание, значение и практические аспекты внедрения стандартизированной работы на производственных предприятиях.ннотация. В статье анализируются содержание, значение и практические аспекты внедрения стандартизированной работы на производственных предприятиях. Стандартизированная работа рассматривается как важный инструмент управления, обеспечивающий воотация. В статье анализируются содержание, значение и практические аспекты внедрения стандартизированной работы на производственных предприятиях. Стандартизированная работа рассматривается как важный инструмент управления, обеспечивающий воспроизводимость производственных процессов, укрепляющий технологическую дисциплину и служащий для стабилизации показателей качества и эффективности. В исследовании освещаются основные этапы процесса внедрения стандартизированной работы, вопросы организации рабочих мест и документирования процессов. Также обосновано влияние данного подхода на сокращение несоответствий в производственных процессах, сокращение потерь времени и ресурсов, а также унификацию деятельности персонала.акже обосновано влияние данного подхода на сокращение несоответствий в производственных процессах, сокращение потерь времени и ресурсов, а также унификацию деятельности персонала. Результаты исследования свидетельствуют о том, что внедрение стандартизированной работы является важным фактором повышения конкурентоспособности предприятий, обеспечивая при этом стабильное функционирование производственных процессов.

Ключевые слова: стандартизированная работа, производственные процессы, управление процессами, организация рабочего места, стабильность качества, эффективность производства, технологическая дисциплина, промышленные предприятия.

KIRISH

ISSN 3030-3907

Hozirgi sharoitda sanoat korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi ishlab chiqarish jarayonlarining aniqligi, takrorlanuvchanligi va boshqariluvchanligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bozor talablarining tez o‘zgarishi, mahsulot sifati bo‘yicha talablarning kuchayishi hamda raqobat muhitining keskinlashuvi ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solish va ularni aniq me’yorlar asosida boshqarishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan standartlashtirilgan ish ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda muhim boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Standartlashtirilgan ish ishlab chiqarish jarayonlarida eng maqbul ish bajarish ketma-ketligini belgilash, vaqt sarfini me’yorlash va ish jarayonlarini hujjatlashtirish orqali jarayon barqarorligini ta’minlashga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv ishchilarning harakatlarini birxillashtirish, tasodifiylikni kamaytirish va texnologik intizomni mustahkamlash imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan nomuvofiqliklar, qayta ishlash holatlari va sifat og‘ishlari kamayadi.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda [1-2]. Ushbu jarayonlarda ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish bilan birga ularni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish zarurati yuzaga chiqmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlar mavjud bo‘lsa-da, ishlarning bajarilish tartibi yetarli darajada hujjatlashtirilmagan yoki xodimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Bu esa ishlab chiqarish barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Standartlashtirilgan ishni joriy etish ushbu muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish imkonini beradi.

Xorijiy sanoat amaliyotida standartlashtirilgan ish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sifat ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirish va uzluksiz takomillashtirish jarayonlari uchun asos sifatida qaraladi. Bunda standartlashtirilgan ish faqat qat’iy qoida sifatida emas, balki mavjud jarayonlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish uchun boshlang‘ich nuqta vazifasini bajaradi. Shu sababli mazkur yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarining moslashuvchanligini saqlagan holda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, standartlashtirilgan ishni joriy etishda uni milliy sanoat sharoitlariga moslashtirish, ishlab chiqarish texnologiyalarining murakkabligi va xodimlar malakasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Standartlashtirish jarayoni faqat hujjat tayyorlash bilan cheklanmasdan, xodimlarni jalb etish, ish joylarini moslashtirish va nazorat mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi. Bu

ISSN 3030-3907

esa mazkur yo‘nalishda ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqishni dolzarb masalaga aylantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Standartlashtirilgan ish konsepsiyasi ishlab chiqarish jarayonlarini barqarorlashtirish va takrorlanuvchanlikni ta’minlashga qaratilgan boshqaruv yondashuvi sifatida dastlab yapon sanoat amaliyotida shakllangan. Ushbu yondashuvning ilmiy asoslari ko‘pincha ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur tahlil qilish va eng maqbul ish usullarini belgilash orqali samaradorlikni oshirish g‘oyasi bilan izohlanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarida me’yoriy ketma-ketlikni ta’minlash va ish bajarish usullarini birxillashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Standartlashtirilgan ish tushunchasining shakllanishi va rivojlanishida ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy tashkil etish bo‘yicha olib borilgan dastlabki tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. F.U.Taylor tomonidan ilgari surilgan ilmiy boshqaruv tamoyillarida ish jarayonlarini tahlil qilish, vaqt sarfini o‘lchash va eng samarali ish usullarini belgilash g‘oyalari keyinchalik standartlashtirilgan ish konsepsiyasining nazariy poydevoriga aylangan [3]. Ushbu yondashuvda ish jarayonlarini me’yorlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaralgan.

Keyingi davrda standartlashtirilgan ish ishlab chiqarish tizimlari doirasida yanada mukammal shaklga ega bo‘ldi. T.Ohno tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarishni tashkil etish tamoyillarida standartlashtirilgan ish jarayon barqarorligining asosiy sharti sifatida talqin qilinadi [4]. Uning fikricha, jarayonlarni takomillashtirish faqat mavjud ish usullari aniq belgilangan va hujjatlashtirilgan sharoitda samarali amalga oshirilishi mumkin. Shu bois standartlashtirilgan ish uzluksiz takomillashtirish uchun boshlang‘ich nuqta vazifasini bajaradi.

Standartlashtirilgan ishning boshqaruv tizimidagi o‘rni J.K.Liker asarlarida ham keng yoritilgan [5]. Muallif ishlab chiqarish jarayonlarida barqarorlik va sifatni ta’minlashda standartlashtirilgan ish xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish va texnologik intizomni mustahkamlashga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlarida standartlashtirilgan ish qat’iy cheklov sifatida emas, balki muammolarni aniqlash va takomillashtirish imkonini beruvchi vosita sifatida talqin qilinadi.

Standartlashtirilgan ishni amaliyotda qo‘llash masalalari M.Rother va J.Shook tadqiqotlarida ishlab chiqarish jarayonlarini ko‘rinarli qilish va ish ketma-ketligini aniqlashtirish bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi [6-7]. Mualliflar standartlashtirilgan ish jarayonlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish uchun

ISSN 3030-3907

zarur bo‘lgan axborot bazasini shakllantirishini qayd etadi. Bu yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan og‘ishlarni tez aniqlash imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda standartlashtirilgan ishning sifat boshqaruvi bilan bog‘liqligi ham alohida ta’kidlanadi [8-10]. Xalqaro standartlar, xususan sifat boshqaruvi bo‘yicha talablar, jarayonlarning hujjatlashtirilishi va takrorlanuvchanligini ta’minlashni muhim shart sifatida belgilaydi [11-12]. Shu jihatdan standartlashtirilgan ish ishlab chiqarish jarayonlarini sifat boshqaruvi talablariga mos ravishda boshqarish uchun amaliy asos yaratadi. Tadqiqotchilar standartlashtirilgan ish mavjud bo‘lmagan sharoitda sifatni barqaror ta’minlash qiyinlashishini qayd etadi.

So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda standartlashtirilgan ishning samaradorligi korxona miqyosi, texnologik murakkablik va xodimlar malakasi bilan chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Ayrim mualliflar ushbu yondashuvni mexanik tarzda joriy etish kutilgan natijani bermasligini, uni korxona sharoitlariga moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Shu sababli standartlashtirilgan ishni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va xodimlarning faol ishtirokini talab qilishi ilmiy adabiyotlarda keng e’tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot vazifalarni yechish uchun tizimli tahlil usullari, jarayonli yondashuv, deduksion yoki induksion, kuzatish, eksperiment, sifatni boshqarishning axborotli modellaridan foydalanilgan.

TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALARI

Standartlashtirilgan ish — bu ishlab chiqarish jarayonlarida ish operatsiyalarini bajarishning eng maqbul, xavfsiz va barqaror usulini aniqlash, uni aniq ketma-ketlikda belgilash hamda hujjatlashtirishga asoslangan boshqaruv yondashuvidir. Ushbu yondashuv ishni bajarish jarayonida tasodifiylikni kamaytirish, texnologik intizomni mustahkamlash va ishlab chiqarish natijalarining takrorlanuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Standartlashtirilgan ish jarayonida har bir operatsiya qanday tartibda, qancha vaqt ichida va qaysi usulda bajarilishi aniq belgilanadi. Bu esa ishchilarning tajribasi yoki individual yondashuviga bog‘liq bo‘lmagan holda, ish natijalarining barqarorligini ta’minlash imkonini beradi. Shu sababli standartlashtirilgan ish ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda muhim tayanch nuqta hisoblanadi.

Standartlashtirilgan ishning mohiyati ish jarayonlarini bir xillash tirishda emas, balki eng samarali ish usulini aniqlab, uni barcha xodimlar uchun tushunarli va amaliy shaklda joriy etishda namoyon bo‘ladi. Har bir operatsiya qaysi ketma-ketlikda, qancha vaqt davomida va qanday usulda bajarilishi aniq belgilanganida ishlab chiqarish jarayonlarida og‘ishlar kamayadi va sifat ko‘rsatkichlari

ISSN 3030-3907

barqarorlashadi. Shu sababli standartlashtirilgan ish ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda tayanch mexanizm sifatida qaraladi.

Standartlashtirilgan ish odatda bir nechta asosiy elementlardan iborat bo‘lib, ular ish jarayonining barcha muhim jihatlarini qamrab oladi.

1-jadval

Standartlashtirilgan ishning asosiy elementlari

Element	Mazmuni
Ish ketma-ketligi	Operatsiyalarni bajarish tartibining aniq belgilanishi
Vaqt me’yorlari	Har bir operatsiya uchun belgilangan vaqt
Ish usullari	Asbob va vositalardan foydalanish tartibi
Xavfsizlik talablari	Mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalari
Sifat talablari	Nuqsonlarning oldini olishga qaratilgan shartlar

Mazkur elementlar asosida ishlab chiqilgan standartlar ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Standartlashtirilgan ish mavjud bo‘lmagan sharoitda jarayonlarni baholash va muammolarni aniqlash murakkablashadi, chunki taqqoslash uchun barqaror mezonlar shakllanmagan bo‘ladi.

Standartlashtirilgan ish eng avvalo ishlab chiqarish korxonalarida, ayniqsa takrorlanuvchi operatsiyalar ustun bo‘lgan jarayonlarda keng qo‘llaniladi. Mashinasozlik, metallga ishlov berish, yig‘uv va montaj jarayonlarida ish operatsiyalarining aniq standartlar asosida bajarilishi ishlab chiqarish oqimining muvozanatini ta’minlaydi. Bu jarayonlarda har bir ishchining vazifasi va mas’uliyati aniq belgilanib, ish jarayonlarida uzilishlar kamayadi.

2-jadval

Standartlashtirilgan ish qo‘llaniladigan asosiy yo‘nalishlar

Qo‘llanilish sohasi	Amaliy ahamiyati
Yig‘uv va montaj	Oqimni muvozanatlashtirish, uzilishlarni kamaytirish
Texnologik xizmat	Nosozliklarning oldini olish
Sifat nazorati	Baholash natijalarining bir xilligi
O‘qitish va tayyorlash	Xodimlarni tez moslashtirish
Ish joyini tashkil etish	Vaqt va harakat yo‘qotishlarini kamaytirish

Standartlashtirilgan ish sifat nazorati jarayonlarida ham muhim ahamiyatga ega. Nazorat va o‘lchov amallari belgilangan tartibda bajarilganda baholash natijalari ishonchli bo‘ladi va subyektivlik kamayadi. Bundan tashqari, standartlashtirilgan ish yangi xodimlarni tayyorlashda samarali vosita bo‘lib, ish usullarini bir xil darajada o‘zlashtirish imkonini beradi.

Standartlashtirilgan ishni amaliyotga joriy etish jarayoni ketma-ket va tizimli yondashuvni talab etadi. Dastlab mavjud ish jarayonlari tahlil qilinadi, eng samarali

ISSN 3030-3907

ish usullari aniqlanadi va ular hujjatlashtiriladi. Keyingi bosqichda xodimlar o‘qitilib, standartlar amaliyotga tatbiq etiladi. Ushbu jarayon doimiy nazorat va takomillashtirish bilan birga olib borilgandagina kutilgan natijalar yuzaga chiqadi.

O‘z DSt IATF 16949:2018 xalqaro standarti talablariga muvofiq, ishlab chiqarish korxonalarida nazorat rejasida belgilangan jarayonlar uchun standartlashtirilgan ish hujjatlari, jumladan ishchi yo‘riqnomalar ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim. Ushbu hujjatlar ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligi, takrorlanuvchanligi va boshqariluvchanligini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Standartlashtirilgan ishni joriy etish jarayonida ishchi yo‘riqnomalar texnologik intizomni mustahkamlash va ish operatsiyalarini yagona me’yorlar asosida bajarishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ishchi yo‘riqnoma ish jarayonini standartlashtirish vositalaridan biri bo‘lib, u muayyan jarayon, ish turi yoki operatsiyani bajarish tartibini batafsil bayon etuvchi hujjat sifatida qaraladi. Bunday hujjatlar ishchilarga belgilangan algoritm asosida faoliyat yuritish imkonini berib, ish bajarishdagi farqlar va tasodifiylikni kamaytiradi. Amaliyotda har bir ishchi bajaradigan vazifalariga qarab bir nechta ishchi yo‘riqnomalardan foydalanishi mumkin bo‘lib, bu ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi va ko‘p bosqichliligi bilan izohlanadi.

IATF 16949 talablariga ko‘ra, ishchi yo‘riqnomalar ishni bajarishga mas’ul bo‘lgan xodimlarga yetkazilgan, tushunarli va qulay shaklda taqdim etilgan bo‘lishi zarur. Yo‘riqnomalar ish joylarida bevosita foydalanish uchun moslashtirilgan, o‘qilishi oson va xodimlar tushunadigan tilda bayon etilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, ushbu hujjatlarda ishchilar uchun zarur bo‘lgan xavfsizlik qoidalari va mehnatni muhofaza qilish talablari aniq ko‘rsatilishi talab etiladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik darajasini oshirish bilan birga, xatolar ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.


Ishchi yo‘riqnomalar xodimlarga ishni belgilangan ketma-ketlikda va xatosiz bajarish imkonini beradi. Ular natijaga erishishning eng maqbul va qisqa yo‘lini ko‘rsatib, ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarning oldini olishga qaratilgan qoidalarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, ishchi yo‘riqnomalarda favqulodda vaziyatlarda bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlar, foydalaniladigan uskunalar ro‘yxati, ishchi tomonidan talab etiladigan xomashyo, asbob-uskunalar va boshqa zarur ma’lumotlar keltiriladi.

Yangi xodimlarni ishga qabul qilish yoki vaqtincha boshqa xodim bilan almashtirish jarayonida ishchi yo‘riqnomalar muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjatlar yangi xodimlarning ishlab chiqarish jarayonlariga tez moslashishini ta’minlab, ishni to‘g‘ri va belgilangan tartibda bajarish imkonini yaratadi. Shuningdek, xodimlar ta’tilga chiqqan yoki vaqtincha ish joyida

ISSN 3030-3907

bo‘lmagan holatlarda ishchi yo‘riqnomalar boshqa xodimlar uchun muhim qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Ishchi yo‘riqnomalardan, avvalo, korxonaning asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini ta’minlovchi ishchilar foydalanadi. Shu bilan birga, muammoli yoki yuqori xavf darajasiga ega bo‘lgan jarayonlar uchun alohida ishchi yo‘riqnomalar ishlab chiqilishi ayniqsa muhim hisoblanadi. Bu yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarida barqarorlikni ta’minlash, sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash va standartlashtirilgan ishni samarali joriy etishga xizmat qiladi (1-rasm).




1-rasm. Ishchi yo’riqnomalarni amalga oshirish sxemasi

Ishlab chiqarish korxonalarida standartlashtirilgan ishni samarali joriy etishda ishchi yo‘riqnomalar muhim amaliy vosita hisoblanadi. Ishchi yo‘riqnoma muayyan jarayon, ish turi yoki operatsiyani bajarish tartibini qisqa, aniq va tushunarli shaklda tavsiflovchi hujjat bo‘lib, u ish jarayonlarini standartlashtirishning asosiy elementlaridan biridir. Bunday yo‘riqnomalar ishni bajarishda belgilangan algoritmga qat’iy rioya etilishini ta’minlab, xatolar va og‘ishlar ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ishchi yo‘riqnomalar imkon qadar ixcham bo‘lishi, birgina jarayon yoki operatsiyani qamrab olishi va ishchi uchun ortiqcha axborot bilan yuklanmagan bo‘lishi lozim. Amaliyotda yo‘riqnomalarda ish algoritmining barcha bosqichlari nafaqat matn shaklida, balki vizual vositalar – rasmlar, chizmalar yoki fotosuratlar yordamida ham ifodalanishi tavsiya etiladi (2-rasm). Bu yondashuv ishchilarga operatsiyani ko‘rinarli holatda qabul qilish va uni to‘g‘ri bajarishga yordam beradi. Ayniqsa, murakkab yoki xavf darajasi yuqori bo‘lgan operatsiyalar uchun vizual ko‘rsatmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Nomuvofiqliklarni vizual ko'rinishi


Ishchi yo'riqnomalar odatda texnologiya bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan ishlab chiqiladi. Ya'ni, ishga qo'yiladigan talablar va bajarilishi lozim bo'lgan operatsiyalar bevosita jarayon egalarining ishtirokida tavsiflanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni takomillashtirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ishchi yo'riqnomalarni tuzishda ish joyini to'g'ri tashkil etish, ortiqcha harakatlarni bartaraf etish va muhim jihatlarni e'tibordan chetda qoldirmaslikda metodik yordam ko'rsatadi.

3-jadval

Ishchi yo'riqnomalarga qo'yiladigan asosiy talablar

Talab yo'nalishi	Mazmuni
Qisqalik va aniqlik	Faqat bitta jarayon yoki operatsiya tavsifi
Tushunarlilik	Xodimlar tushunadigan sodda va aniq til
Vizual taqdimot	Rasmlar, sxemalar yoki fotosuratlar mavjudligi
Amaliy yo'naltirilganlik	Bevosita ish joyida foydalanish imkoniyati
Xavfsizlik	Mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalarining aks ettirilishi

ISSN 3030-3907



3-rasm. Standartlashtirilgan ish yo'riqnomasi (SOS Standard Operation Sheet)

Ishlarni standartlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarida bir qator ijobiy ustunliklarni yuzaga keltiradi. Avvalo, ishchi yo'riqnomalar asosida faoliyat yuritish barcha smenalardagi ishchilarning vazifalarni bir xil talablarga muvofiq bajarishini ta'minlaydi. Bu jarayonlarda o'zgaruvchanlikni kamaytirib, ishlab chiqarish madaniyatining yuksalishiga olib keladi. Shuningdek, standartlashtirilgan ish xavfsizlik va sifat ishlab chiqarish hajmidan ustun ekanini amaliy jihatdan namoyon etadi.

4-jadval

Ishlarni standartlashtirish natijasida erishiladigan asosiy ustunliklar

Yo'nalish	Ta'siri
Jarayon barqarorligi	Ish bajarishdagi farqlar kamayadi
Xavfsizlik	Ish vaqtida yuzaga keladigan xavflar qisqaradi
Sifat	Mahsulot va jarayon sifati barqarorlashadi
Yo'qotishlar	Vaqt va resurs yo'qotishlari kamayadi
Muammolarni hal etish	Muammolar tez aniqlanib, bartaraf etiladi
Nazorat	Ishlarni tekshirish va audit qilish osonlashadi

Standartlashtirish doimiy takomillashtiriladigan jarayon bo'lib, uning yordamida tashkilotning ichki jarayonlari, ish tartiblari va usullari yagona jarayonli yondashuv asosida shakllantiriladi. Standartlashtirilgan ish hujjatlari ishni

ISSN 3030-3907

muvaffaqiyatli bajarishga ko‘maklashuvchi, har bir ish elementini sodda va tushunarli tarzda ifodalovchi qo‘llanma vazifasini bajaradi. Bunday hujjatlar yangi xodimlar uchun ishni o‘rganish vositasi, mavjud xodimlar uchun esa ish ketma-ketligini eslatib turuvchi amaliy qo‘llanma hisoblanadi.

Ishlarni standartlashtirishning asosiy maqsadi jarayonlarga aniq talablar o‘rnatish va ularni doimiy ravishda takomillashtirish orqali ishlab chiqarish faoliyatining barqaror rivojlanishini ta’minlashdir. Bu jarayonda xavfsizlikni ta’minlash, hujjatlar va amaldagi ishlar o‘rtasidagi muvofiqlikni saqlash hamda jarayonlarning izchil ketma-ketligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishchi yo‘riqnomalar sifat boshqaruv tizimi hujjatlarining quyi darajasini tashkil etib, oddiy ishlab chiqarish operatsiyalarini, montaj ishlarini, uskunalarni o‘rnatish va ulardan foydalanish tartibini bosqichma-bosqich bayon etadi. Shuningdek, ularda mahsulot sifatini nazorat qilish usullari, foydalaniladigan asbob-uskunalar va o‘lchov vositalari belgilab qo‘yiladi. Amaliy jihatdan ishchi yo‘riqnomalar tashkilot standartlari sifatida qaralib, korxonalar o‘z faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda bunday standartlarni ishlab chiqish va joriy etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ishlab chiqarish korxonalarida standartlashtirilgan ishni joriy etish jarayon barqarorligini ta’minlash, sifat ko‘rsatkichlarini mustahkamlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Standartlashtirilgan ish ish operatsiyalarini bajarishning eng maqbul usullarini belgilash va ularni hujjatlashtirish orqali ish jarayonlaridagi o‘zgaruvchanlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa mahsulot va jarayon natijalarining takrorlanuvchanligini ta’minlash uchun zarur sharoit yaratadi.

Tadqiqot davomida ishchi yo‘riqnomalarning standartlashtirilgan ish tizimidagi roli alohida aniqlandi. Ishchi yo‘riqnomalar ish jarayonlarini qisqa, aniq va tushunarli shaklda ifodalab, xodimlarga belgilangan algoritm asosida faoliyat yuritish imkonini beradi. Ularning vizual elementlar bilan boyitilishi ish operatsiyalarini tez va to‘g‘ri o‘zlashtirishga yordam berib, xatolar va qayta ishlash holatlarining kamayishiga olib keladi. Ayniqsa, yangi xodimlarni ishga moslashtirish va vaqtincha almashinuv holatlarida ishchi yo‘riqnomalar ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlovchi muhim vosita ekanligi tasdiqlandi.

Standartlashtirilgan ishni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik va sifat ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ish jarayonlarining hujjatlashtirilgan va nazorat qilinadigan bo‘lishi mehnat muhofazasi talablariga rioya etilishini kuchaytirib, ish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni

ISSN 3030-3907

kamaytiradi. Shu bilan birga, barcha smenalardagi xodimlar tomonidan ishlarning bir xil talablarga muvofiq bajarilishi ishlab chiqarish madaniyatining yuksalishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, standartlashtirilgan ishni joriy etish bir martalik tadbir emas, balki doimiy takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Standartlar ishlab chiqarish jarayonlarini baholash va muammolarni aniqlash uchun tayanch nuqta vazifasini bajarib, keyingi takomillashtirishlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bois standartlashtirilgan ishni korxona sharoitlariga moslashtirgan holda, bosqichma-bosqich va xodimlar ishtirokida joriy etish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. T.: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi o‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. T.: 2021-yil 2-iyun, PQ-5133-sonli Qarori.
3. Taylor F.W. The Principles of Scientific Management. — New York: Harper & Brothers, 1911. — 144 p.
4. Ohno T. Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. — Tokyo: Productivity Press, 1988. — 176 p.
5. Liker J. K. The Toyota Way: 14 Management Principles from the World’s Greatest Manufacturer. — New York: McGraw-Hill, 2004. — 330 p.
6. Rother M., Shook J. Learning to See: Value Stream Mapping to Add Value and Eliminate MUDA. — Brookline: Lean Enterprise Institute, 2003. — 102 p.
7. Rother M. Toyota Kata: Managing People for Improvement, Adaptiveness, and Superior Results. — New York: McGraw-Hill, 2010. — 306 p.
8. Савицкий И.В. Методика применения системы 5С на промышленных предприятиях // Экономика и предпринимательство. – 2025. – № 1. – с. 1373–1382. – doi: 10.34925/EIP.2024.174.1.252.
9. Лекарева Ю.С., Ремизова В.Ф. Бережливое производство как механизм управления предприятием // Вестник Российского экономического университета им. Г.В. Плеханова. – 2024. – № 3. – с. 190–196. – doi: 10.21686/2413–2829–2024–3–190– 196.
10. Енина Д.В. Использование инструментов бережливого производства для повышения конкурентоспособности региона (на материалах Амурской области) // Конкурентоспособность в глобальном мире: экономика, наука, технологии. – 2025. – № 1. – с. 152–157.

ISSN 3030-3907

11. ISO 9001:2015. Quality management systems — Requirements. — Geneva: International Organization for Standardization, 2015.
12. ISO 9004:2018. Quality management — Quality of an organization — Guidance to achieve sustained success. — Geneva: ISO, 2018.

ISSN 3030-3907